

RASMIY ISH HUJJATLARIDAGI TAQIQNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Maqsudova Feruzaxon Jo‘ravoy qizi

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Jamiyatning har bir a‘zosi o‘z fikrini aniq, tushunarli va ravon ifodalashi uchun tildagi qonun-qoidalardan, xususan, uslublardan ham boxabar bo‘lishi kerak. Kundalik so‘zlashuv uslubidan tashqari, rasmiy ish yuritish tili haqida ham bilimlarga ega bo‘lmog‘i lozim. Sababi hajm va shkl jihatdan turlicha bo‘lgan hujjatlar jamiyatimizning har bir sohasini tartibga solib turuvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, miloddan avvalgi 1792-150 yillarda Babil davlatining podshohi Xamurapping adolatpesha qonunlar to‘plamining mavjudligi hujjatlarning qadimiy tarixga ega ekanligini ko‘rsatadi. Sharqda esa X-XIX asrlarda yorliq, farmon, noma, bitim va shunga o‘xshash hujjat turlari keng tarqalgan.

Uslub (arabcha – tartib, tartib-usul; usul, yo‘sin; shkl) 1. Til unsurlarining ma‘lum vazifa bajarishiga bog‘liq holda birlashadigan, til birliklarining o‘ziga xos tanlanishi, birikishi kabilar bilan xarakterlanadigan tizimlar. Til uslublari.

Funksional uslublar.

2. Til vositalaridan foydalanishning ma‘lum bir yozuvchi, asar, janr uchun xarakterli bo‘lgan usullari majmui. A.Qahhor uslubi. Feletonlar uslubi.

3. Til vositalarining ekspressiv-uslubiy belgi asosida tanlanishi (saylanishi); nutqning so‘z qo‘llash va sintaktik me‘yorlarga mos holda tuzilishi. Kitobiy uslub. Rasmiy uslub. Ilmiy uslub.1

Stil (uslub) so‘zi hozirda keng va tor ma‘nolarda ishlatilmoqda. Keng ma‘noda “uslub”, “usul”, “yo‘l” so‘zlarining ma‘nosida: ish uslubi, o‘yin uslubi, qadimgi muhtasham binolar uslubi kabi ishlatilsa, tor ma‘noda tilshunoslik, adabiyotshunoslik va san‘atshunoslik fanlarining bir sohasi sifatida - terminologik ma‘noda qo‘llanayotir.2

Stilistika (yun. stylos – yozuv, xat tayoqchasi), uslubshunoslik, uslu-

1Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 2008. 299-бет.

2 Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. - Тошкент: “Фан”. 1984. 5-бет.



biyat – tilshunoslikning til uslublarini tadqiq etuvchi, tilning leksik-frazeologik, fonetik, morfologik, so‘z yasalishi va sintaktik sathlarda sinxroniya va diaxroniya nuqtai nazaridan funksional qatlamlanishining mohiyati va o‘ziga xosliklarini o‘rganuvchi, adabiy tilni turli lisoniy vaziyatlarda, yozma adabiyotning xilma-xil tur va janrlarida, ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo‘llash me‘yorlari va usullarini tavsiflovchi tarmog‘i. Stilistikada parallel sinonimik til ifodalaridagi ma‘noviy va ekspressiv nozikliklar, lisoniy birliklarning o‘zaro munosabatdosh variantlari o‘rganiladi.³

Yuqoridagi ma‘lumotlarga tayangan holda shuni ta‘kidlashimiz mumkinki, barcha nutq uslublari o‘ziga xos ifoda ko‘lamiga ega va boshqa nutq uslublaridan farqli o‘laroq, rasmiy nutqda fikr ifodalash usuli ham o‘ziga xosdir. Uni badiiy yoki so‘zlashuv nutqlariga taqqoslaydigan bo‘lsak, o‘rtadagi farq yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

1. Rasmiy nutq matnlari aniq ma‘lumotni ixcham hamda asosan qoliplashgan vositalar asosida bayon etadi. Ilmiy nutqqa qiyoslasak ham umumiy jihatlarini, ham farqli jihatlarini ko‘rishimiz mumkin.

2. Rasmiy nutqning lingvistik belgilari haqida so‘z yuritilganda, uning har ikki ko‘rinishida ham, ya‘ni og‘zaki va yozma (ish hujjatlari) shaklida ba‘zi lisoniy birliklardan holi bo‘ladi. Masalan, kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari, shevaga oid so‘zlar, argon va jargon so‘zlar, shuningdek, istiora, tashxis, jonlantirish, mubolag‘a kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi vositalar ishlatilmaydi.

3. Rasmiy nutq matnining aniqligi, ixchamligi, lo‘ndaligi, mazmuniy to‘liqligi uning qanday lingvistik birliklar asosida ifodalanishiga bog‘liq. Unda tayyor sintaktik qurilmalar faol qo‘llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta‘minlaydi. Darak va buyruq gaplar matnning asosiy qismini tashkil etadi. Gap tuzilishida o‘zbek tilidagi odatdagi me‘yorga amal qilinadi.

Rasmiy nutqning ifoda ko‘lami haqida so‘z ketar ekan, tadqiqotimizning asosi bo‘lgan taqiq nutqiy janrining rasmiy turdagi matnlarda qo‘llanilishiga e‘tibor qaratsak. Dastlab rasmiy hujjatlarda taqiqning ifodalanishini uchga ajratish mumkin:

1. Qonun hujjatlarida

³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 2004. - бет.



2. Tashkilotlarning ichki tartibida.

3. Jamoat joylarida.

Qonun hujjatlisrida, xususan, yangi tahrirdagi konstitutsiyadagi taqiq namunalarini ko'rib chiqsak.

12-modda.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi **mumkin emas.**

26-modda.

Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi **mumkin emas.**

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi **mumkin emas.**

Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi **mumkin emas.**

121-modda.

Tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyatga viloyat, tuman va shahar hokimi boshchilik qiladi.

Hokimlarning vakolatlari muddati – besh yil. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shaharning hokimi etib tayinlanishi **mumkin emas.**

44-modda.

Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat **taqiqlanadi.**

Bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari **taqiqlanadi.**

146-modda.

O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo'linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi **taqiqlanadi.**

35-modda.



Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga **yo'l qo'yilmaydi**.

82-modda.

Senzuraga **yo'l qo'yilmaydi**.

Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

131-modda.

O'zbekiston Respublikasida sud tizimi va sudlar faoliyatining tartibi qonun bilan belgilanadi.

Favqulodda sudlar tuzishga **yo'l qo'yilmaydi**.

10-modda.

O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga **haqli emas**.

20-modda.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'liqdir.

Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim **haqli emas**.

Yuqoridagi misollarda ishlatilgan taqiqni ifodalovchi leksik birliklarning ishlatilishi quyidagicha:

№	Leksik birliklar	mavzu	soni	%
1	Taqiqlanadi	Shaxsga qaratilgan	1	12,5%
2	mumkin emas	Shaxsga qaratilgan Qonunga qaratilgan Qonunga qaratilgan Qonunga qaratilgan	4	50%
3	yo'l qo'yilmaydi	Saxsga qaratilgan Qonunga qaratilgan	2	25%
4	Haqli emas	Shaxsga qaratilgan	1	12,5%

Jadvaldan ko'rinadiki, jami sakkizta taqiq ifodalovchi fe'l ishlatilgan bo'lsa, undan 50% zini **mumkin emas** fe'li tashkil qilgan. Taqiqlanadi so'zi leksik ma'nosining



o'zi taqiq ma'nosini bersa, qolganlarida **emas** to'liqsiz fe'li va **-ma** inkor qo'shimchasi orqali ifodalanayapti. Demak, ushbu misollarda taqiq ma'nosi 3 yo'l bilan ifodalanmoqda: leksema orqali, emas to'liqsiz fe'li va -ma inkor qo'shimchasi yorqamida. Bog'liqligi tomonidan to'rttasi shaxsga qaratilgan bo'lsa, to'rttasi Qonunga tegishlidir.

Tashkilotlarning ichki tartibida taqiqning ifodalanishi.

3. Samarqand davlat universiteti hududida quyidagilar ta'qiqlanadi:

1.Universitet hududida, binolarda, yo'laklarda, auditoriya va ajratilmagan boshqa joylarda sigaret, nos chekish.

2.Alkogolli ichimliklar (aroq, vino, pivo va boshqalar), giyohvandlik moddalari iste'mol qilish.

3.Bezorilik qilish, uyatli so'zlar aytish, so'kinish, o'zgalarga shilqimlik qilish, odamlar osoyishtaligiga putur yetkazadigan xatti-harakatlar sodir etish.

4.Diniy mazmundagi yozma yoki elektron vositalardagi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish.

Yuqoridagi belgilangan taqiq ma'lum bir hududda, ya'ni oliygohda, shu yerda ta'lim oluvchilar uchun amal qiladi va asosan normative hujjat sifatida lingvistik birliklar orqali ifodalanadi.

Jamoat joylarida taqiqning ifodalanishi.

Taqiqning bu turi boshqalariga nisbatan farqli ravishda lingvistik va paralingvistik vositalar asosida ifodalanadi:

Chilim va elektron sigaretalarni chekishni reklama qilish, ya'ni chilim va elektron sigaretalar chekish usullari va yo'llari, shuningdek, ularni olish joylari to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatishga qaratilgan faoliyatga **yo'l qo'yilmaydi**. 4

Rasmiy nutqda faol qo'llaniluvchi nutqiy odat tusiga kirgan buyruq ohangiga ega gaplar tahliliga e'tirbor bersak, uslubning talabi nuqtai nazaridan ikkilamchi axborotning ifodalanishiga guvoh bo'lamiz:

Bu yerda chekish **mumkin emas!**

Mazkur jumla orqali ifodalanyotgan asosiy propozitsiya chekishning taqiqlangan ekanligi. Unga gap strukturasi va uslub talabi jihatidan yondoshsak, "Bu yer chekilmaydigan joy" degan ikkilamchi axborotni ham anglashilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

4 "Jamoat joylarida chilim va elektron sigaretalari chekishni cheklash to'g'risida"gi qonun.Toshkent sh.,2018-yil 2-iyul O'RQ-478-son





CHEKISH TAQIQLANADI!

☞ Mazkur belgi shartli ravishda chekish taqiqlangan hududlarda mavjud bo'lib, u orqli chekishning man etilganligi qonuniy asosga ega ekanligi ma'nosi ham anglashiladi.

Bundan tashqari prezident imzolagan qonunga ko'ra 21 yoshga to'lmaganlarga alkogol va tamaki maxsulotlarini sotish ✗ **taqiqlandi**. Alkogol mahsulotlarini ish joylarida, ko'chalarda, stadionlarda, xiyobonlarda, bog'larda, barcha turdagi jamoat transportida va boshqa jamoat joylarida iste'mol qilish **taqiqlanadi**.

🔊🔊 Kvartiralarda, koridorlarda, ko'chalarda baland ovozda kuylash, ovozli signallar berish (mashinada ham), ovoz kuchaytirgichlar, magnitafonlar va boshqa ovozli qurilmalardan foydalanish, shuningdek maishiy shovqinga qarshi kurashish talablarini buzuvchi boshqa harakatlarni amalga oshirish ✗ **taqiqlanadi**.

Bundan tashqari jamoat joylarida, transport vositalarida taqiqni ifodalovchi yuqoridagi kabi yana ko'plab tasvirlarga tez-tez duch kelamiz.





- 🙄 Jimlikni saqlang!
- 📵 Telefondan foydalanmang!
- 🚫 Chiqindi tashlamang!
- 👋 To'xtang!

Yuqoridagi vositalar orqali ifoda etilgan taqiqlar butunbir ijtimoiy hayot vakillari uchun taalluqli bo'lsa, quyida beriladigan taqiq namunalari maxsus bir yo'nalishga aloqadordir. Bu Mazkur belgilar alohida mas'ul shaxslar tomonidan o'qitiladi, o'rgatiladi.



"Kirish taqiqlangan" Barcha transport vositalarining kirishi taqiqlangan



"Harakatlanish taqiqlangan" Barcha transport vositalarining harakatlanishi taqiqlanadi.



"Mexanik transport vositalarining harakatlanishi taqiqlangan"



"Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan" To'la vazni 3.5 tonnadan (agar vazni belgida ko'rsatilmagan bo'lsa) yoki to'la vazni belgida ko'rsatilganda ortiq bo'lgan yuk avtomobillari va transport vositalari tizimlarining, shuningdek, traktorlar, o'ziyurar moslamalarning harakatlanishi taqiqlanadi. Bu belgi bortlariga qiya oq chiziq tortilgan yoki odamlarni tashiyotgan yuk avtomobillarining harakatlanishini taqiqlamaydi.

Rasmiy matnlarning xolislik, aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlik kabi zaruriy sifatlari o'ziga xos uslub, undagi o'ziga xos so'z qo'llash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Давлат тили ҳақида”ги Қонун. Тошкент, 1989 йил, 21 октябрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбек тилининг асосий имло қоидаларини тасдиқлаш ҳақида”ги Қарори. 1995-йил, 24-август.
3. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y., Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2020. – 19-bet.
4. Jamoat joylarida chilim va electron sigaretalari chekishni cheklash to‘g‘risida”gi qonun. Toshkent sh., 2018-yil 2-iyul O‘RQ-478-son

